

***O'zbekiston Respublikasi Alolqa, Axborotlashtirish
va Telekomunikatsiya Texnologiyalari Davlat
Qo'mitasi***

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

*Mavzu: O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi milliy
operatori faoliyati*

Guruh: 131-11 guruh

Topshirdi: B.Chorshanbiyev

Qabul qildi: S. Mustafaqulov

Toshkent-2013

Reja:

Kirish

- 1. “O‘zbekiston pochta” OAJ shaxobchalari.***
- 2. O‘zbekiston Respublikasi pochta aloqasi Milliy operatori xaqida.***
- 3. Pochta aloqasi milliy operatori faoliyati.***

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Mamlakatning pochta aloqasi shoxobchalari tarkibiy jixatdan "O'zbekiston pochtasi" ochiq aktsiyadorlik jamiyati shoxobchalaridan iboratdir, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 174 ta tuman va shahar pochta aloqa tarmoqlaridan, 2986 ta aloqa bo'limlaridan (ulardan 2227 tasi qishloq joylarda) iborat bo'lgan 14 ta mintaqaviy filiallar;*
- 4 ta ixtisoslashtirilgan filial - "Xalqaro pochtamt", "O'zbekiston markasi", «Pul jo'natmalarini nazorat qilish markazi", OOO «EMS-FALCON»;*
- pochta jo'natmalarining muntazam ravishda tashilishini ta'minlovchi 1 ta temir yo'l, 33 ta avia, 500tadan ortiq avtomobil yo'nalishlari.*

Pochta aloqalari korxonalarida 6537ta yetkazib beruvchi, shu jumladan 2442tasi shaxar va 4045tasi qishloq joylarga yetkazib berish uchastkalar tashkil qilingan. Xizmat kursatish doirasida 5264 pochta, ya'ni xat va boshqa korrespondentsiya yig'uvchi qutilar, shundan 3369tasi qishloq joylarda o'rnatilgan.

Davriy nashrlar va boshqa pochtani o'z vaqtida yetkazib berish uchun viloyat markazlari va Toshkent shahri o'rtasida bir haftala 6 marotaba almashinuv tashkil etilgan. Pochta 4 marshrut bo'yicha avtotransport yordamida, 5ta marshrut bo'yicha – aviatransport yordamida yetkazib berilmoqda.

«Xalqaro pochtamt» filiali «O'zbekiston pochtasi» OAJning faqat xalqaro almashinuv joyi hisoblanadi. Xalqaro pochtamt barcha xorijiy davlatlaridan kelgan va O'zbekiston Respublikasining tashqarisiga

ketayotgan pochta jo'natmalariga ishlov beradi. Shu bilan birga pochta jo'natmalari va davriy nashrlarni tashishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi milliy operatorining ishlab chiqarish faoliyatini xarakterlaydigan asosiy ko'rsatkichlaridan biri pochta almashuvi - aniq vaqt davomida belgilanishi bo'yicha qabul qilingan, ishlov berilgan va uzatilgan pochta jo'natmalari soni hisoblanadi. Pochta almashuvi kiruvchi, chiquvchi va tranzitga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasining milliy operatori faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan yana biri xizmat ko'rsatish sifati hisoblanadi. U pochta tarmoqlari, pochta aloqasi tarmoqlari va aloqa bo'limlari kiradigan pochta aloqasi punktlari, almashuv punktlari, pochta qutisining zichligi; xizmat ko'rsatish hududining radiusi va bir aloqa punkti tomonidan xizmat ko'rsatiladigan aholi soni; aholi, korxona, muassasa va tashkilotlar uchun ish rejimining qulayligi; pochta jo'natmalariga ishlov berish, ularni jo'natish va adresatlarga yetkazib berish uchun sarflangan vaqt kabi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Pochta aloqasining ikki yoki bir nechta xizmat ko'rsatish punktlari va pochta almashuvi punktlari o'rtasida pochta transportining yo'nalishiga pochta marshruti deyiladi. Transport tarmoqlarining asosiy vazifasi pochta jo'natuvchilardan oluvchilarga o'z vaqtida va sifatli tashilishini ta'minlashdan iborat. Pochtaning pochta marshrutlari bo'yicha tashilishini tashkil qilishda, avvalam bor, qatnovning qisqa tarmoqlarini, aloqa korxonalari o'rtasidagi muntazam aloqani, shuningdek tashishlarning tejamliligini hisobga olgan holda, marshrutlarning boshlang'ich va oxirgi punktlarini aniqlash zarur.

Yo'llar va pochta oqimlarining mavjudligidan kelib chiqib, transport turi va uning yuk ko'tarish qobiliyatini tanlash, shuningdek pochta almashtirish, tashish, yetkazib berish va chiqarib olish davriyligi normativlari va pochta jo'natmalariga ishlov berish va ularni yetkazib berishning asosiy nazorat muddatlari asosida transport harakatini ishlab chiqish zarur. Pochta aloqasi butun dunyoda insonning har kungi hayot tarzining bir qismi hisoblanadi va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim ro'l o'ynaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston pochta uch marta islohot qilindi:

1992 yilda MDHda birinchilardan bo'lib elektr aloqadan ajralib chiqdi va mustaqil xizmat bo'lib faoliyat ko'rsata boshladi;

1997 yili Hukumatning qarorlari asosida pochta aloqasining davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlariga o'zgartirildi va tarkibiga 14 ta hududiy aksiyadorlik jamiyatlari kirgan «O'zbekiston pochta» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil qilindi;

Vazirlar Ma'xamasining 2004 yil 19 iyuldagi «Pochta aloqasi sohasida faoliyatni takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori «O'zbekiston pochta» Davlat aksiyadorlik kompaniyasini qayta tashkil qilish yo'li bilan yagona ochiq aksiyadorlik jamiyatini yaratish va unga barcha aksiyadorlik jamiyatlarini, ularni filiallarga o'zgartirib, birlashtirish to'g'risidagi qarori qabul qildi. Pochta aloqa sohasi xalq xo'jaligi sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning asosiy vazifasi aholi va xalq xo'jaligining pochta aloqa xizmatlari va vositalariga bo'lgan talabini qondirishdan iboratdir.

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jaxson moliyaviy inqirozi, uning taisiri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Buning tasdig'ini tashki dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonda xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shubxa yo'q, jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun O'zbekistonda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda O'zbekistondagi barcha pochta aloqa ob'ektlari va pochta aloqasi korxonalari oldida sifatli xizmat ko'rsatish uchun quydagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

❖ *pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkil etish. Kompyuter uskunasi o'rnatalishi yagona korporativ axborot tarmog'ini tuzishda dastlabki bosqich hisoblanadi, bu sifat xarakteristikalarini oshirish;*

❖ *pochta aloqasi bo'limlarining xodimlari tomonidan yangi metodlar va texnologiyalarni kiritish, ishjarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;*

❖ *yangi xizmatlarni joriy etish bo'yicha sezilarli ishlar olib borish, joriy etilgan yangi xizmatlarni ko'rsatish saviyasini oshirish;*

❖ *AKT asosida ko'satiladigan xizmatlarni joriy etilishini tezlashtirish (elektron tijorat, gibrid va elektron pochta va boshqalar);*

❖ *pochta va yuklarini respublika ichida tashishni to'g'ri yo'lga qo'yish va optimallashtirish, xatlarni yetkazish muddatlarini qisqartirish, pochta qutilarni saqlash va kengaytirish masalalari yechishga yetarli darajada e'tibor qaratish;*

❖ *yuqori daromadli kuryer, ekspress-xat, pochta orqali reklama va boshqa axborot turdagi xizmatlarni joriy etish;*

❖ *axborot texnologiyalari bazasiga asoslangan yangi xizmat turlari to'g'risidagi reklamani joylashtirish bo'yicha ishlar olib borish;*

❖ *pochta aloqasi ob'ektlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanuvchilar to'g'risida hududlarda marketing tadqiqotlari olib borish;*

❖ *sifat menejmentini joriy etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;*

Foydalanilgan WEB saytlar ro'yxati:

www.pochta.uz www.ref.uz www.ziyonet.uz www.google.co.uz